

**BUXORO ADABIY MUHITINING ISTE'DODLI VAKILI**

*Abdurahimova Oysha Mubin qizi*

*Buxoro davlat universiteti, Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishi  
2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asr boshlarida yashab faoliyat ko'rsatgan iste'dodli Mavlono Husomiy shaxsiyati va ijodining ayrim qirralari haqida mulohaza yuritilgan. Muallif o'z fikrlarini dalillashda Hasanxo'ja Nisoriyning „Muzakkiri ahbob“ tazkirasidagi ma'lumotlarga tayanadi.

**Kalit so'zlar :** Ali Qo'chqor, Shahzoda Shoh tabib, Xulafoi Roshdin.

Yirik olim Hasanxo'ja Nisoriy „Muzakkiri ahbob“ tazkirasining 1-bobi 1-faslida „Keksalik yoshiga yetib vafot etgan va Buxoroda dafn qilingan jamoat zikrida“ deb sarlavha qo'ygan. Mazkur sarlavha ostidagi 12-maqolada o'z she'rlarida adolat, insof g'oyalarini kuylagan, sevgi va bahor haqida nodir asarlar bitgan shoir va musiqashunos Mavlono Husomiy-Qorako'liyning hayoti va ijodi haqida mulohaza yuritilgan. Mavlono Husomiddin Xivada tug'ilgan bo'lsa-da, hayotining asosiy qismi Buxoroda o'tgan. 1442-1505-yillarda yashagan. O'z zamonasining Xoja Ahror Valiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug'larning nazariga tushgan.

Mavlono Xusomiy Hasanxo'ja Nisoriyning „Muzakkiri ahbob“ tazkirasida „Devonayi Xusomiy“ tarzida tilga olinadi. Tabiatan to'g'ri so'z, jur'atli shoir bo'lgan Xusomiy haqida xalq orasida turli rivoyatlar tarqalgan. Hasanxo'ja Nisoriy „Muzakkiri ahbob“da Xusomiy haqidagi maqolani shoir ijodidan bir bayt keltirish bilan boshlaydi. Keyin esa Xusomiy haqida xalq orasida keng tarqalgan rivoyatlardan biri xalq hukmiga havola etildi. „Xusomiy bir bor qalandarlar jamoasiga qo'shilib, ziyoratga ketayotganida, haj yo'lidagi viloyatlardan birining hokimi farmon beradi: „Devona Husomiy mendan biror narsa tilang“ -debdi.

Devona debdiki: - Sening xayringga hecham ehtiyojim yo'q. Ammo buyurgilki, manavi pashshalar menga qo'nishmasin!

Hokim: - Pashshalar mening buyrug'imga quloq osmaydi, iloji yo'q, - debdi. Shunda devona Husomiy debdiki: - Hukmiga arzimas pashshalar ham quloq osmagan kishi birovga nima ham bera olardi?

„Muzakkiri ahbob“dan keltirilgan ushbu lavha Mavlono Husomiyning favqulotda jasoratli, iymon-e'tiqodi mustahkam ijodkor ekanligini ko'rsatadi.

„Muzakkiri ahbob“ muallifi quyidagicha ixcham ma'lumot bergan: „Husomiy shialikda ayblashgan, biroq qasidalarida xulafoi roshdin madhi bor“ (2,84)

Mavlono Husomiy rangin qasidalar yaratgan. Uning qasidalari Abu Bakr Siddiq, Umar al-Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib kabi xalifalar madhiga

bag'ishlangan va katta shuhrat qozongan. Bu haqda Hasanxo'ja Nisoriy o'z o'z tazkirasida Mavlono Husomiy qasidalaridan, g'azal janrida bitilgan asarlaridan namuna sifatida ayrim baytlarni keltirgan. „Muzakkiri ahbob“ Buxoro adabiy muhitining iste'dodli vakili Mavlono Husomiy Xivaqiy Qorako'liy haqida nodir ma'lumotlar beradi.

Bu o'rinda „Muzakkiri ahbob“ni fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan manbashunos olim Ismoil Bekjonovning xizmatlarini alohida ta'kidlash zarur. Zahiriy Samarqandiyning „Sinbadnoma“ (1992), va Eron elchilari Muhammad Alixon G'afurning „Xorazm safari kundaligi“ (2005), Abbosqulixonning „Buxoro Safarnomasi“ (2007) Rizoqulixon Hidoyatning „Xorazmga elchilik kitobi“ (2009) Muhammadyor ibn Arab Qatag'onning „Musaxxir il-fidod“ (2009) hamda Mutribiy Samarqandiyning „Hind safari“ (2005), Xondamirning „Buyuklik xislati“ (2011), „Habib us-siyar“ (2013) asarlarini mahorat bilan o'zbek tiliga o'g'irgan zahmatkash mutarjim Ismoil Bekjon „Muzakkiri ahbob“ni ham fors tilidan o'zbek tiliga bejirim tarjima qilgan.

„Muzakkiri ahbobdan Ismoil Bekjon tarjimasida o'qiymiz: Mavlono Ali Qo'chqor aytgandi, Shahzoda Shoh Tabib har shoir devonidan bittadan bayt tanlab yurganida devona Xusomiy devonidan esa mana shularni yozib olgan ekan. Bayt:

Hamchu xurshid ki tobad zi kabudiy falak ,  
Otashi mehri tu paydost zi xokistari mo,  
Ob az chashmi raqib oyadu purbahr shavem,  
Az rahi banda navozi chu dar oyi bari mo.  
Gardi g'ayr az ruhi mo pok kun, ey seli sirishk,  
To namirimu tahi xok namonad zari mo  
Chun, Husomiy, shudaam podshahi mulki suxan,  
Ba asosi suxan orasti shud lashkari mo. ( 2,84)

Xusomiy ijodidan keltirilgan forsiy matnning mazmuni mohir tarjimon Ismoil Bekjon tomonidan o'zbek tiliga quyidagicha ifodalangan: Zangori osmondan nur sohib turgan quyoshdek, mehri otashi kulimiz uzra ko'rinib turibdi. Dushman ko'zidan suv kelsa, biz quvonaylik, ko'ngil so'rash yo'li bilan yonimizga kelsang ham shunday qilaylik. O'zganing gardini yuzimizdan yuvib tashla, ey ko'z yoshimiz seli, to tirikmiz va hali tuproq ostiga kirmagunimizcha.

Husomiy so'z mulkining podshohi bo'libman, demak, lashkarimiz so'z asosida saf tortgan.

Salohiyatli olim mumtoz adabiyotda tarixdagi bir kentiklikni to'ldirish niyatida mavlono Husomiyning ijodiy me'rosini xalqimizga qaytarishda bel bog'lab „Qorako'li bulbuliman“ risolasini ham yozgan. Tabiiyki, Ismoil Bekjonov ushbu risolasini faqat „Muzakkiri ahbob“ga tayanib emas, yana boshqa ko'pgina manbalarni sinchiklab o'rganish natijasida yozgan. Mavlono Xusomiyning shaxsi va ijodiy salohiyati haqida

bitilgan „Muzakkiri ahbob” ma’lumotlarini yana boshqa nodir manbalardagi dalillar bilan quvvatlantirgan. Olimning uzoq vaqt izlanishlari ma’naviy dunyomizni, tafakkur tarzimizni boyitadi, qalbimizda ijodkor ajdodlarimizga bo’lgan faxr-iftixor tuyg’ularini to’ldiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O’zbekiston, NMIU, 2017.-113-bet.
2. H.Nisoriy Muzakkiri ahbob .Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi „Xalq merosi” nashriyoti, 1993. -183-185-betlar
3. I.Bekjon „Qorako’l bulbuliman” Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston milliy kutubxonasi. 2014
4. Muhammad G’iyosiddin. G’iyosul-lug’ot. Iborat az se jild, jildi II –Dushanbe; Adib, 1988.-416-sah.
5. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati to’rt tomlik. II tom.-Toshkent: Fan 1983.-644-bet.
6. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati to’rt tomlik. III tom.-Toshkent: Fan 1984.-624-bet.